

## O'ZBEK TILIDA MOTAM SEMANTIK MAYDONINING LEKSIK SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Mushtariybonu Jaloliddinova Jamoliddin qizi,  
Andijon davlat universiteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o`zbek tilida motam semantik maydoniga oid ayrim so`zlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** semantik maydon, yadro, periferiya, arxisema, frazema.

Maydon nazariyasi haqidagi nazariy fikrlar o`tgan asrda paydo bo`lgan bo`lsa-da, u hozir ham eng dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Semantik maydon nutqning turli qismlariga birlashtirilgan va o`zgarmas ma`noga ega bo`lgan tegishli til birliklarining iyerarxik tarzda tashkil etilgan to`plamidir. Semantik maydon tushunchasi keng tarqalgan bo`lib, uning tadqiqotchilari soni doimiy ravishda ortib bormoqda. Semantik maydon nazariyasi bilan shug`ullangan tilshunos V.B.Tyuzinning ta`kidlashicha, leksik-semantik maydon tushunchasining yagona aniq izohi bo`lmasa-da, ko`plab tadqiqotchilar tomonidan qayt etilgan asosiy belgilari mavjud.

Avvalo, leksik-semantik maydon o`zida o`zaro bog`liq bo`lgan leksik-semantik birliklarni aks ettiradi.

Ikkinchidan, leksik-semantik maydon asosida maydonning barcha komponentlari bilan bog`liq bo`lgan yadro elementi yotadi.

Shuningdek, leksik-semantik maydon bo`lishi shart bo`lgan ikki hududdan – yadro va periferiyadan iborat strukturaga ega. Shunday qilib, leksik-semantik maydon bu – umumiy yadro elementiga ega, o`zaro bog`liq bo`lgan semantik birliklar sistemasidir. Leksik-semantik maydon yadrosiga barchaga ma`lum bo`lgan va faol qo`llaniluvchi so`zlar, periferiya qismiga esa kam qo`llaniluvchi va ko`pchilikka uncha tanish bo`lmagan so`zlar kiritiladi.

Masalan, o`zbek tilida “Motam” leksik-semantik maydoni yadrosi motam leksemasi hisoblanadi. Markaz tarkibiga ma`noviy jihatdan yaqin bo`lgan ta`ziya, aza, judolik, o`lim kabi so`zlar kiradi. Periferiyada maydon yadrosi bilan bog`lanishli

aloqada bo`lgan qabr, yig`i, tobut, kafan, vasiyat, meros kabi bir qator leksemalar joylashgan.

O`zbek tilida motam konsepti ikki xil ma`noda qo`llaniladi: 1) yaqin yoki mo`tabar kishining o`limi tufayli yuzaga kelgan qayg`uli holat; 2) qattiq tashvish, qayg`u-alamli holat. Motam leksik-semantik maydoni deganda invariant motam arxisemasi atrofida birlashgan, ushbu maydonda o`z o`rniga ega bo`lgan, turlicha morfologik va sintaktik tuzilish va qolibga ega, invariant ma`noga turli darajada yaqin yoki distant(bosh ma`nodan uzoqlashgan) ma`noviy aloqada bo`lgan, bir va undan ortiq ma`noli, mono- yoki polifunksional, o`zaro paradigmatic, sintagmatik aloqada bo`lgan, vaziafalariga ko`ra faol va nofaol, ifodaliligi jihatidan turlicha bo`yoqdorlikka ega til birliklari sistemasini tushunamiz. Ya`ni motam semantik maydoni tarkibida turli sathlarga taalluqli bo`lgan til birliklari teng mavqed. Ular tuzilishi, tilning qaysi sathiga oidligi semantik xususiyati bilan farq qiladi, ammo ijodkorning ongida o`rnashib qolgan umumiy mazmun bilan birlashgan.

Motam semantik maydoni tuzilishida o`zaro bog`liq bo`lgan bir qator konseptual maydonlar mavjud. Tilimizdagи mazmunan o`lim tufayli yuzaga keladigan qayg`uli holat ma`nosini anglatuvchi aza, ta`ziya, g`am, qayg`u, kulfat, judolik kabi leksik birliklar mana shu maydonga birlashadi va umumlashgan tarzda motam semantik maydonini shakllantiradi. Bundan tashqari, semantik maydon tarkibiga motam marosimi urf-odatlari bian bog`liq bo`lgan tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar ham kiritiladi. Bu mazkur semantik tuzilmaning ko`p qirrali ekanligi va murakkabligidan dalolat beradi.

Motam semantik maydonini tashkil etuvchi birliklarning aksariyat qismi bevosita o`lim sememasini bilan bog`liq. Quyida biz o`lim sememasining frazeologik va paremik birliklar orqali ifodalanishini tahlil qilamiz. Masalan, o`lim to`shagida yotibdi birikmasi o`limi yaqin holatda bo`lgan odamga nisbatan qo`llaniladi: O`lim to`shagida yotganida ham hazilni qo`ymagan edi. (T.Obidov. Yusufjon qiziq). O`sال bo`lmoq iborasi og`irlashib qolmoq, o`lim oldida yotmoq semasini ifodalaydi: Bemor kundan kun battar bo`lib, oxiri o`sال bo`ldi. (Abdulla Qahhor. Bemor)

O`lmoq leksemasi mantiqiy va mazmuniy asos bo`lib quyidagi frazemalar shakllanganligini ko`rishimiz mumkin: dunyodan o`tmoq, dunyodan ketmoq, ko`zini yummoq, olamdan o`tmoq, olamdan ketmoq, nafasi tindi, engak tashlamoq, nobud bo`lmoq, qaytish qilmoq, yuragi urishdan to`xtadi, oxirgi yo`lga kuzatmoq, paymonasi to`ldi, mazasi bo`lmadi, jonini jannatga yubormoq, jannati bo`lmoq, bandalikni bajo keltirmoq, dunyodan ko`z yummoq, dunyodan ko`zi ochiq ketmoq, vafot qilmoq, vafot etmoq, oradan ketmoq, qazo qilmoq, halok bo`lmoq, jon bermoq, shahid bo`lmoq, xudoning hukmini bajarmoq, xazon bo`lmoq kabilar.

Bu frazemalar orasidagi vafot etmoq, olamdan o`tmoq, o`zini topshirmoq, rixlat qilmoq, safar qilmoq, qazo qilmoq, ko`z yummoq, qaytish qilmoq kabilar o`lmoq leksemasi orqali ifodalangan tushunchaning yumshoqroq ifodasi bo`lsa, to`ng`iz qo`pmoq, yer tishlamoq kabi iboralarda salbiylik bo`yog`i mavjud.

Tog`ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida jon bermoq iborasi o`lmoq ma`nosini ifodalash uchun qo`llanilgan: El-yurt otamiz jon bermish tuproq uzra oppoq yalov qadab oladi.

Xudo rahmat qilsin, tuprog`i yengil bo`lsin, joyi jannatda bo`lsin, oxirati obod bo`lsin, dargohida qabul qilsin, qaro yerlari nurlarga nurlarga to`lsin, Jannat bog`chalaridam ato etsin, bu dunyoda ko`rmaganlarini u dunyoda ko`rsin, obi zamzam suvlaridan ato qilsin, o`z rahmatiga olsin kabi birikmalar esa vafot etgan kishini Xudo o`z marhamatiga sazovor qilishini tilab aytildi.

Azob chekmoq, alam chekmoq iboralari yaqinidan ayrılgan insonning qiyin holatga tushib, azoblanishi ma`nosini ifodalaydi.

Shuningdek, motam semantik maydoniga tegishli tabu va evfemizmlarda aza, janoza, ma`raka, qa`da, hayit singari urf-odat leksemalari ma`lum ma`nolari orqali ishtirok etadi. Jumladan: Yomonning janozasidan yaxshining hikoyasi foydali; Kimga –to`y, kimga aza; Azalik joyda odmi bo`l tarzidagi paremalarda aza, janoza leksemalariga xos “marosim”, “ko`pchilikka xos”, “motam, qayg`u” semalar mavjud.

Ma`rakada topib gapirgan – dono, O`zini tutib gapirgan ham – dono; Osh ko`p bo`lsa, qa`da ko`p maqollarida ishtirok etgan ma`raka, qa`da leksemalari ma`nolari

tarkibidagi “marosim”, “ko’pchilikka xos”, “motam, qayg’u”, “yig’in” kabi semalar kuzatiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Begmatov E. Hozirgi o`zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent, 1985.
2. Begmatov E., Ne’matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O`zbek tili va adabiyoti. – 1989, 6-son. – B.35- 40.
3. Ne’matov H., Rasulov R. O`zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O`qituvchi, 1995.
4. Iskandarova Sh. O`zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o`rganish (shaxs mikromaydoni): Fil. fanlari dok... diss. avtoreferat. – Toshkent, 1999.
5. Ибрагимов С. Профессиональная лексика узбекского языка: Автореф. дис... д-ра фил. наук. – Ташкент, 1961.;
6. Соссюр Ф. Де. Труды по языкоznанию. – Москва: Прогресс, 1977.